



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To‘plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a’zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G‘.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G‘.O‘.

Mas’ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7507065>

HUDUDLARNI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TURIZMNING TUTGAN O‘RNI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)

Tillayev Doniyor Mavritali o‘g‘li

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: tillayevdoniyor777@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada Namangan viloyatida turizmni va uning asosida hududlarni hamda shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganilgan. Viloyat bo‘ylab turistik marshrutlar tashkil qilish va turistik maskanlar doirasida belgilab olingan.

Kalit so‘zlar: turistik koridor, turistik resurslar, infratuzilma, hududiy tarkib, turistik marshrut, urbanistik taraqqiyot, turistik omil.

THE ROLE OF TOURISM IN THE SOCIAL AND ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS (ON THE EXAMPLE OF NAMANGAN REGION)

Tillayev Doniyor

Annotation: This article examines tourism in Namangan region and the opportunities for economic and social development of regions and cities based on it. It is planned to organize tourist routes throughout the region and within the framework of tourist destinations.

Keywords: tourist corridor, tourist resources, infrastructure, regional content, tourist route, urban development, tourist factor.

Bugungi kunda turizmning jahon iqtisodiyotidagi hissasi yil sayin oshib, u muhim makroiqtisodiy tarmoqlardan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Turizmni rivojlantirish yordamida milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni yuksaltirish, uning asosida shahar va shaharchalarni rivojlantirish, yangi ish joylarini barpo etish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun katta imkoniyatlar yaratiladi. Turizm shahar hosil qiluvchi omil sifatida eng samarali omillardan biridir. Shu bois, respublikada ham mazkur sohani rivojlantirishga e‘tibor qilgan holda, 2019 yilda turizmni yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi Prezident farmoni, “Turizm to‘g‘risida”gi qonun, 2020-yilda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori, turizmni

rivojlantirishning 2020-2024 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi va sohaga oid bir qancha hujjatlar qabul qilindi. [1]

O'zbekiston turizm sohasini har tomonlama rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Bu uning ichki mintaqalarida misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. [4] Bu borada respublikaning turistik imkoniyatlari yuqori bo'lgan mintaqalaridan biri Farg'ona vodiysi hisoblanadi. Farg'ona vodiysi o'zining qulay tabiiy sharoiti hamda arxitektura-me'morchiligi va noyob arxeologik yodgorliklar bilan alohida ajralib turadi. Biroq, bugungi kunda mintaqaning turistik salohiyati va mavjud imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini yuqori deb bo'lmaydi. Bular o'z navbatida hududning turistik salohiyatini tadqiq qilish va va uning hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning dolzarbligini belgilab beradi.

Namangan viloyatida turizmni rivojlantirish orqali shaharlarni rivojlantirish imkoniyatlari ancha yuqori bo'lib, turizm orqali shaharlarni rivojlantirish imkoniyatlariga to'xtalib o'tsak.

Haqqulobod shahri muhim o'sish nuqtasi hisoblanadi. Shahar transport chorrahasida va qadimiy Elotan shahar yodgorliklari yaqinida joylashgan. Hududda, shuningdek, gastroturizm, agroturizm va hududdagi gidroinshootlar hisobiga rekreatsion turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta.

Namangan viloyatining shimoli-sharqida joylashgan Uchqo'rg'on shahri ham tibbiy turizm va rekratsion turizm (gidroinshootlar hisobiga), shuningdek, qo'shni Qirg'izistonda muhim o'tkazish punkti bo'lganligi va bu orqali qo'shni respublikadagi rekratsion obyektlardan ham samarali foydalanish hisobidan shaharni rivojlantirish imkoniyatlari yuqori.

Chortoq shahri azaldan rekratsion turizm rivojlangan bo'lib, shahar rivojida turizmning bu omilini va agroturizm va boshqa turizm turlari orqali shaharni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Viloyatning shimolidagi Kasonsoy shahri va Yangiqo'rg'on, Nanay, Zarkent shaharchalarini rekratsion turizm bilan, shuningdek, qo'shni Qirg'izistonda Respublikadagi rekratsion obyektlardan ham samarali foydalanish hisobidan shaharni rivojlantirish istiqbollari yuqori.

Hozirgi kunda Namangan va To'raqo'rg'on shaharlari orasida 500 dan ortiq maydonda 150 mingdan oshiq aholiga mo'ljallangan Namangan Business City qurilishi boshlangan bo'lib, ushbu hududda turizmning zamonaviy turlarini va turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali shahar rivojida turizm omilini yuqoriligi belgilab beradi.

To'raqo'rg'on shahrida ham turizm rivoji uchun keyingi yillarda bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Is'hoqxon To'ra Ibrat ziyoratgohi va boshqa qadimiy

qadamjolar obodonlashtirildi. Shahar yaqinida joylashgan qadimiy Axsikent yodgorligi turizm rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.[2]

Chust shahri viloyatning ikkinchi katta shahri bo'lib, aholi soni 100 mingga yaqinlashmoqda. Shahar hunarmandchilik va savdo markazi sifatida ham rivojlangan. Shaharda yondosh G'ovasoy, Varzik va boshqa hududlarda rekreatsion turizm shakllanishi shahar rivojida turizmning ahamiyatini oshiradi.

Pop shahri sanoat va transport markazi sifati shakllanganligi bilan tavsiflansa-da shaharni turizm omili bilan rivojlantirish imkoniyatlari yuqori. Turistlarni yo'naltirish uchun shaharda 2 ta temir yo'l vokzali mavjudligi va shahardan har kuni respublikamizning deyarli barcha shaharlariga kuniga bir nechtadan yo'lovchi poyezdlarini harakatlanishi shaharni turizm markazi sifatidan shakllanishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, shahar yaqinida Arashonbuva, Munchoqtepa (II-VII asrlarga oid), Oqtepa, Xo'jaobodtepa, Langarmozor, Bulgadaraztepa, Chillamozortepa, Chodak, G'urumsaroy, Guzar, Chirchirmomo, Ismoil Atoyi, Shoh Sulaymon, Xo'ja Muhammad Samosiy, Langarbuva, Imomota kabi tarixiy obidalar, yodgorliklar, masjidlar va muzeylar tarixiy turizmni asosini tashkil etsa, ekoturistik obyektlardan Chodak, Parda Tursun va Oltinkon dam olish maskanlari joylashgan.

Chotqol tog' tizmasining janubiy yonbag'irlarida joylashgan Chodak qishlog'ida hozirgi kunda 20 mingga ziyod aholi istiqomat qiladi. [3] Hudud to'liq tabiiy rekreatsion hudud hisoblanadi. Turizm bu yerda mavsumiylik kasb etadi (asosan yoz oylaradi). Turizmni barqaror rivojlantirish uchun hududda qish fasliga mos bo'lgan tog'-chang'i obyektlari tashkil qilish imkoniyatlari bor. Shuningdek, hudud infratuzilmasi Angren-Pop temiryo'lining Chodak qishlog'idan o'tishi va Kon va Chodak stansiyalarini barpo etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Kelajakda ushbu stansiyalardan sayyohlarni qabul qilish va jo'natish uchun foydalanib turizm rivojini ta'minlash mumkin va Chodakka shahar maqomini berish to'g'ri bo'lardi. Parda-Tursun qishlog'iga ham tabiiy rekreatsion resurslar yuqoriligi bois hududga shaharcha maqomini berish va shaharcha rivojini ta'minlash kerak.

Tahlillardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, mintaqa shaharlarining rivojlanishida turizmning ahamiyati yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Turistik maskanlardan shahar hosil qiluvchi va rivojlantiruvchi omil sifatida baholash to'g'ri bo'lardi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 13.08.2019 yildagi PF-5781-son Farmoni
2. Mahmudov.L.M.Axsikent yodgorligini o'rganish va uni turizm manzilgohiga aylantirish istiqbollari. -Namangan: Namangan, 2016. -24 b.

3. Soliyev. A.S., Tashtayeva. S.K., Egamberdiyeva M.M. “Shaxarlar geografisi”. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent «Barkamol fayz media», 2018
4. Tuxliyev. I.S., Qudratov G‘.X., Pardayev. M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. «Iqtisodiyot moliya» nashriyoti. Toshkent 2010. 254 bet.
5. Tashtayeva S.K., Qosimov X.S. “Farg‘ona mintaqasi turistik koridori shaharlarining rivojlanish imkoniyatlari”. “Zamonaviy geografik tadqiqotlarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va innovasion rivojlanishi, tabiatdan oqilona foydalanish va turizm masalalari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (Nukus sh., 2021-yil 26–27-oktabr) 113-116 betlar.